

INFLYATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING MAKROIQTISODIY DETERMINANTLARI

Narkuziyev Anvar Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası dotsenti

Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com

ORCID: 0009-0008-4211-8548

THE CONCEPT OF INFLATION AND ITS MACROECONOMIC DETERMINANTS

Narkuziev Anvar Rustamovich

Associate professor of the department "Theory of Economics"

of Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com

ORCID: 0009-0008-4211-8548

Annotatsiya: Mazkur maqolada inflyatsiya tushunchasining nazariy mohiyati, uning vujudga kelish sabablari hamda zamonaviy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy determinantlari O'zbekiston iqtisodiyoti misolida kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda inflyatsiya jarayonlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi monetar, fiskal va real sektor omillari ilmiy yondashuvlar asosida baholanadi. Xususan, pul massasi hajmining o'zgarishi, Markaziy bankning foiz stavkasi siyosati, inflyatsion kutilmalar, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, davlat byudjeti taqchilligi, valyuta kursining o'zgaruvchanligi hamda tashqi iqtisodiy omillarning narxlar umumiy darajasiga ta'siri tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish va inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida inflyatsiya dinamikasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash, pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish hamda fiskal intizomni mustahkamlashning inflyatsiyani pasaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari inflyatsiyaning ko'p omilli iqtisodiy hodisa ekanligini, uni

samarali boshqarish faqat monetar choralar bilan emas, balki fiskal siyosat, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, raqobat muhitini rivojlantirish va tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, inflyatsion jarayonlarni prognozlash, makroiqtisodiy xavflarni kamaytirish hamda narxlar barqarorligini uzoq muddatli ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaga qarshi siyosatni takomillashtirish, makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda xalqaro tajriba va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar bilan qiyosiy tahlillar amalga oshirilib, inflyatsion targetlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, pul-kredit transmissiya kanallarining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning tashqi shoklarga chidamliligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical essence of inflation and its major macroeconomic determinants using the economy of the Republic of Uzbekistan as a

case study. The research examines the underlying causes of inflation and evaluates the influence of monetary, fiscal, and real-sector factors on inflationary processes based on modern economic theories and empirical approaches. Particular attention is devoted to the impact of money supply growth, central bank interest rate policy, inflation expectations, aggregate demand and aggregate supply imbalances, fiscal deficits, exchange rate fluctuations, and external economic shocks on the general price level. Furthermore, the study investigates the characteristics of inflation dynamics in Uzbekistan following the economic reforms initiated in 2017, including exchange rate liberalization and the gradual implementation of the inflation-targeting framework. The research highlights the importance of maintaining price stability through effective monetary policy, prudent fiscal management, and coordinated macroeconomic policies. The findings demonstrate that inflation is a multidimensional macroeconomic phenomenon that cannot be effectively controlled through monetary instruments alone. Sustainable inflation management requires a balanced combination of monetary and fiscal policies, expansion of productive capacity, improvement of market competition, enhancement of institutional quality, and strengthening of external economic stability. In addition, the article develops scientifically grounded conclusions and practical recommendations aimed at improving inflation forecasting, mitigating macroeconomic risks, and ensuring long-term price stability. The results may serve as a theoretical and practical basis for enhancing anti-inflation policies, strengthening macroeconomic equilibrium, improving public welfare, and supporting sustainable economic growth in Uzbekistan.

The study also incorporates comparative analysis of international experience and contemporary economic theories to identify effective policy instruments for improving the inflation-targeting regime. Special emphasis is placed on increasing the efficiency of monetary transmission mechanisms, reinforcing policy coordination between fiscal and monetary authorities, and enhancing the resilience of the national economy to external shocks and global economic uncertainty, thereby contributing to long-term macroeconomic stability and sustainable development.

Kalit soʻzlar: inflyatsiya, makroiqtisodiy omillar, pul-kredit siyosati, inflyatsion targetlash, yalpi talab va taklif, Oʻzbekiston iqtisodiyoti.

Keywords: inflation, macroeconomic determinants, monetary policy, inflation targeting, aggregate demand and supply, economy of Uzbekistan.

Kirish. Inflyatsiya makroiqtisodiy barqarorlikni belgilovchi eng muhim koʻrsatkichlardan biri boʻlib, u aholining real daromadlari, investitsion faollik va iqtisodiy oʻsish surʼatlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun inflyatsiya muammosi ayniqsa dolzarb boʻlib, iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvi sharoitida narxlar barqarorligini taʼminlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan.

Oʻzbekistonda 2017 yildan boshlab amalga oshirilgan keng koʻlamli iqtisodiy islohotlar, jumladan valyuta bozorining liberallashtirish, narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish va bozor mexanizmlarining kuchaytirilishi inflyatsiya jarayonlariga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Rasmiy statistik maʼlumotlarga koʻra, isteʼmol narxlari indeksi oʻsish surʼatlari 2019–2022 yillarda ikki xonali darajada shakllanib, ayrim

davrlarda 10–12 foiz atrofida bo'lgan. Keyingi yillarda pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish va inflyatsion targetlash tamoyillarining joriy etilishi natijasida inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich pasaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Inflyatsiya shakllanishida pul massasi o'sishi, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, fiskal taqchillik, valyuta kursi dinamikasi hamda import narxlarining oshishi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, tashqi savdoda importga qaramlikning yuqoriligi va global bozorlar kon'yunkturasidagi o'zgarishlar O'zbekistonda "import inflyatsiyasi" ta'sirini kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, inflyatsion kutilmalar ham narxlar umumiy darajasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi inflyatsiya tushunchasining nazariy asoslarini yoritish hamda O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiyaning asosiy makroiqtisodiy determinantlarini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari inflyatsiyani samarali boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Material va metod. Inflyatsiya muammosi iqtisodiy nazariya tarixida eng ko'p tadqiq qilingan makroiqtisodiy hodisalardan biri bo'lib, unga oid ilmiy qarashlar turli iqtisodiy maktablar doirasida shakllangan. Klassik va neoklassik iqtisodiy yondashuvlarda inflyatsiya asosan pul muomalasi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv vakillari narxlar umumiy darajasining o'sishini pul massasining real ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ortib ketishi bilan izohlaydilar. Monetaristik konsepsiyada inflyatsiya "har doim va har yerda pul hodisasi" sifatida baholanib, markaziy banklarning pul-kredit

siyosati asosiy determinant sifatida e'tirof etiladi.

Clayton Christensen (1997) tomonidan ilgari surilgan "disruptive innovation" konsepsiyasi bozor va ishlab chiqarish tizimlarida tarkibiy o'zgarishlar qanday shakllanishini tushuntirib beradi. Muallifning ta'kidlashicha, dastlab kichik segmentlarda paydo bo'lgan innovatsiyalar vaqt o'tishi bilan an'anaviy texnologiyalarni siqib chiqaradi va butun bozor tuzilmasini o'zgartiradi.

Mazkur metodologik yondashuv inflyatsiya jarayonlarini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki texnologik yangilanishlar ishlab chiqarish xarajatlari, taklif hajmi va narx shakllanish mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli inflyatsiyani faqat pul omili bilan emas, balki real sektor samaradorligi va innovatsion rivojlanish darajasi bilan ham bog'liq holda tahlil qilish zarur.

Joe Tidd va John Bessant (2018) innovatsion menejmentning asosiy komponentlari sifatida tashkiliy madaniyat, xatarlarni boshqarish, ichki tadbirkorlik hamda ochiq innovatsiyalarni ko'rsatib o'tadilar. Ularning fikricha, samarali boshqaruv tizimi resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Ushbu yondashuv inflyatsiya nazariyasiga tatbiq etilganda, institutsional sifat va boshqaruv samaradorligi narxlar barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi ayon bo'ladi. Innovatsion faoliyat va samarali boshqaruv ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, taklifni kengaytiradi va xarajat inflyatsiyasining bosimini pasaytiradi.

Mazkur tadqiqotda inflyatsiyaning makroiqtisodiy determinantlari nazariy va empirik yondashuv asosida tahlil qilindi. Nazariy jihatdan monetar nazariya, talab va

taklif inflyatsiyasi konsepsiyalari hamda inflyatsion kutilmalar mexanizmi asos qilib olindi. Empirik tahlilda 2019–2023-yillar bo'yicha pul massasi (M2) o'sishi va inflyatsiya darajasi dinamikasi o'zaro solishtirildi hamda ularning bog'liqligi grafik va mantiqiy tahlil yordamida baholandi.

Shuningdek, inflyatsiyani kompleks baholash maqsadida CPI, PPI va YaIM deflyatori ko'rsatkichlari tarkibiy jihatdan o'rganildi. Natijada inflyatsiya ko'p omilli jarayon bo'lib, uning shakllanishida monetar, fiskal va real sektor omillari o'zaro ta'sirda namoyon bo'lishi ilmiy asoslandi.


Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilib, inflyatsiya determinantlari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari aniqlashtirildi. Natijada inflyatsiyani kompleks va ko'p omilli makroiqtisodiy jarayon sifatida baholashga imkon beruvchi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Natijalar. Inflyatsiya zamonaviy makroiqtisodiyotning eng muhim va murakkab kategoriyalaridan biri bo'lib, u narxlar umumiy darajasining barqaror o'sishi orqali namoyon bo'ladi. Inflyatsiya jarayoni bir vaqtning o'zida pul-kredit, fiskal va real sektor omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu sababli inflyatsiya tushunchasini to'liq anglash uchun uning makroiqtisodiy determinantlarini tizimli ravishda tahlil qilish zarur.

Inflyatsiyaning asosiy determinantlaridan biri pul massasi o'sishidir. Monetar nazariyaga ko'ra, pul massasining real ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tezroq o'sishi iqtisodiyotda ortiqcha likvidlikni yuzaga keltirib, yalpi talabning kengayishiga sabab bo'ladi. Natijada talab inflyatsiyasi shakllanadi. Agar ishlab chiqarish hajmi pul massasining o'sish sur'atiga mos ravishda oshmasa, narxlar umumiy darajasi ko'tariladi. Demak, pul massasi o'sishi va inflyatsiya darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, bu bog'liqlik markaziy bankning pul-kredit siyosati orqali tartibga solinadi.

Biroq inflyatsiya faqat monetar omillar bilan cheklanmaydi. Uning shakllanishida ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, byudjet taqchilligi, valyuta kursining beqarorligi, import narxlarining o'sishi hamda inflyatsion kutilmalar ham muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan inflyatsiya ko'p omilli makroiqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Pul massasi o'sishi inflyatsiyaning asosiy katalizatori bo'lsa-da, taklif tomoni cheklovlari va tashqi omillar narxlar barqarorligiga qo'shimcha bosim o'tkazadi.

Inflyatsiya jarayonlarini tahlil qilish va baholash uchun turli o'lchov ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Eng asosiy o'lchovlar sifatida iste'mol narxlari indeksi (CPI), ishlab chiqarish narxlari indeksi (PPI) va YaIM deflyatori qo'llanadi.



1-rasm. Pul massasi o'sishi va inflyatsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik [1]

Mazkur rasmda 2019–2023-yillar davomida pul massasi o'sish sur'atlari va inflyatsiya darajasi dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma'lumotlari monetar omillarning inflyatsion jarayonlarga ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. CPI aholining iste'mol savatidagi tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishini aks ettiradi va inflyatsiyaning ijtimoiy ta'sirini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. PPI ishlab chiqaruvchilar darajasidagi narxlar dinamikasini ko'rsatib, kelgusidagi iste'mol inflyatsiyasining potensial yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. YaIM deflyatori esa iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar narxlarining umumiy o'zgarishini ifodalaydi [2].

Birinchidan, 2019-yilda pul massasi 18,5 foizga o'sgan bo'lib, inflyatsiya darajasi 14,1 foizni tashkil etgan. Bu davrda pul taklifining kengayishi narxlar umumiy darajasining yuqori o'sishi bilan birga kuzatilgan. 2020–2021-yillarda pul massasi o'sishi mos ravishda 22 foiz va 24,8 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, inflyatsiya darajasi 11,1 foiz va 10 foizgacha pasaygan. Ushbu holat qisqa muddatda pul massasi va


inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik doimo to'g'ridan-to'g'ri proporsional emasligini ko'rsatadi. Bunga pul-kredit siyosatining qat'iylashuvi, talabning qisqarishi yoki taklif tomoni omillarining yaxshilanishi sabab bo'lishi mumkin.

2022-yilda pul massasi o'sishi eng yuqori darajaga – 27,3 foizga yetgan va inflyatsiya 12,3 foizgacha ko'tarilgan. Bu davrda monetar kengayishning inflyatsiyaga kechikkan (lag) ta'siri namoyon bo'lganini taxmin qilish mumkin. 2023-yilda esa pul massasi o'sish sur'ati 21,6 foizgacha pasaygan va inflyatsiya darajasi 9,8 foizgacha tushgan. Bu holat pul-kredit siyosatining inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan choralarining samaradorligini ko'rsatadi [3].

Munozara. Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli istiqbolda pul massasi o'sishi va inflyatsiya o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Biroq qisqa muddatda bu bog'liqlik boshqa makroiqtisodiy determinantlar yalpi talab va taklif muvozanati, fiskal siyosat, tashqi iqtisodiy omillar hamda inflyatsion kutilmalar ta'sirida murakkablashadi.

Demak, inflyatsiyani faqat monetar omillar orqali izohlash yetarli emas,

balki kompleks makroiqtisodiy yondashuv talab etiladi.



2-rasm. Inflyatsiya o'lchovlari va ularning tarkibiy tuzilmasi [4]

Mazkur rasm inflyatsiyani baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar hamda ularning qamrov doirasini tizimli ravishda aks ettiradi. Grafik tuzilma inflyatsiya jarayonlarini o'lchashda uchta asosiy indikator — iste'mol narxlar indeks (CPI), ishlab chiqarish narxlar indeks (PPI) va YaIM deflyatori — qo'llanilishini ko'rsatadi.

Birinchidan, iste'mol narxlar indeks (CPI) aholining iste'mol savatiga kiruvchi 338 ta tovar va xizmat narxlarining o'zgarishini aks ettiradi. CPI inflyatsiyaning ijtimoiy yo'nalgan ko'rsatkichi bo'lib, aholining real daromadlari va xarid qobiliyatiga bevosita ta'sirini baholash imkonini beradi. Uning tarkibiy tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari (42%), nooziq-ovqat mahsulotlari (28%) va xizmatlar (30%) ulushi mavjud. Ushbu tarkib inflyatsiyaning qaysi segment hisobiga shakllanayotganini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, oziq-ovqat narxlarining yuqori

ulushi qisqa muddatli inflyatsion tebranishlarni kuchaytirishi mumkin.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish narxlar indeks (PPI) 1250 ta korxona monitoringi asosida shakllantiriladi va ishlab chiqaruvchi darajasidagi narxlar o'zgarishini ko'rsatadi. PPI odatda kelgusidagi iste'mol inflyatsiyasining "oldingi signali" sifatida talqin qilinadi, chunki ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi vaqt o'tishi bilan yakuniy iste'mol narxlariga uzatiladi. Shu bois PPI taklif inflyatsiyasi va xarajatlar inflyatsiyasini tahlil qilishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Uchinchidan, YaIM deflyatori iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar narxlarining umumiy o'zgarishini qamrab oladi. U CPI dan farqli ravishda faqat iste'mol savati bilan cheklanmaydi, balki investitsiya tovarlari, davlat xarajatlari va sof eksportni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli YaIM deflyatori

inflyatsiyaning kengroq makroiqtisodiy o'lchovi sifatida qaraladi.

Rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyani kompleks baholash uchun birgina ko'rsatkich yetarli emas. CPI inflyatsiyaning ijtimoiy ta'sirini, PPI ishlab chiqarish bosqichidagi narx o'zgarishlarini, YaIM deflyatori esa umumiy makroiqtisodiy narx dinamikasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro solishtirilishi inflyatsiyaning manbalarini aniqlash, monetar va fiskal siyosatni samarali shakllantirish uchun muhim analitik asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya o'lchovlari va ularning tarkibiy tuzilmasi inflyatsion jarayonlarning ko'p qirrali va murakkab tabiatini ifodalaydi. Ularni tizimli ravishda tahlil qilish narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Inflyatsiya o'lchovlarining tarkibiy tuzilmasi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, CPI tarkibida oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar ulushi turlicha bo'lib, har bir komponent inflyatsiya dinamikasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Agar oziq-ovqat narxlari tez sur'atlarda o'ssa, bu aholining real daromadlariga bevosita ta'sir qiladi. Xizmatlar narxlarining oshishi esa uzoq muddatli inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Shu bois inflyatsiyani tahlil qilishda uning tarkibiy komponentlarini alohida baholash zarur [5].

Umuman olganda, inflyatsiya tushunchasi, uning makroiqtisodiy determinantlari va o'lchov ko'rsatkichlari o'zaro chambarchas bog'liq tizimni tashkil etadi. Pul massasi o'sishi inflyatsiyaning asosiy monetar omili bo'lsa, fiskal va real sektor omillari uning shakllanish mexanizmini murakkablashtiradi. Inflyatsiya

o'lchovlari esa ushbu jarayonlarni aniqlash, tahlil qilish va samarali iqtisodiy siyosat choralari ishlab chiqish uchun zarur statistik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot inflyatsiya tushunchasining nazariy asoslarini hamda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy determinantlarni kompleks tahlil qilishga qaratildi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, inflyatsiya ko'p omilli va murakkab makroiqtisodiy jarayon bo'lib, u pul-kredit, fiskal va real sektor omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Tahlillar pul massasi o'sishi va inflyatsiya darajasi o'rtasida uzoq muddatli ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Biroq qisqa muddatli davrda inflyatsiya dinamikasi yalpi talab va taklif muvozanati, ishlab chiqarish xarajatlari, valyuta kursi o'zgarishlari hamda inflyatsion kutilmalar kabi omillar ta'sirida o'zgaruvchan xarakter kasb etadi. Demak, inflyatsiyani faqat monetar omillar orqali izohlash yetarli emas, balki tizimli makroiqtisodiy yondashuv talab etiladi.

Shuningdek, inflyatsiyani o'lchash ko'rsatkichlari iste'mol narxlari indeksi (CPI), ishlab chiqarish narxlari indeksi (PPI) va YaIM deflyatori — inflyatsion jarayonlarning turli qirralarini aks ettirishi aniqlangan. CPI inflyatsiyaning aholining real daromadlari va ijtimoiy farovonligiga ta'sirini ko'rsatsa, PPI ishlab chiqarish bosqichidagi narx o'zgarishlarini aniqlaydi, YaIM deflyatori esa makroiqtisodiy darajadagi umumiy narx dinamikasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'un tahlili inflyatsiyaning manbalarini aniqlash va samarali iqtisodiy siyosat choralari ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Monetar nazariyaning asosiy g'oyasi: "Inflation is always and everywhere a monetary phenomenon" <https://www.jstor.org/stable/1831652>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.Pul massasi (M2) va inflyatsiya statistikasi:<https://cbu.uz/uz/statistics/>
3. <https://stat.uz>
4. International Monetary Fund.Consumer Price Index Manual.
<https://www.imf.org/en/Publications/Manuals-Guides/Issues/2016/12/31/Consumer-Price-Index-Manual-Theory-and-Practice-15850>
5. Inflation indicators (CPI, GDP deflator): <https://data.worldbank.org>